

**“BOLALAR ASSOTSIATIV LUG‘ATI” NING YARATILISH MEXANIZMLARI
XUSUSIDA**

Mirnosirova Dilbar Nodirbek qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi

Dnodirbekovna@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada “Bolalar assotsiativ lug‘ati” ning yaratilish bosqichlari, o‘tkazilgan tajriba turi va tajriba natijalarini saralash jarayoni xususida so‘z boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqi ustida assotsiativ tajriba o‘tkazish, tajriba natijalarini lingvistik va statistik tahlil etish borasidagi ayrim mulohazalar berilgan.

Аннотация: В статье рассказывается об этапах создания «Детского ассоциативного словаря», виде эксперимента и процессе сортировки результатов эксперимента. Даны некоторые комментарии к проведению ассоциативного эксперимента над речью дошкольников, лингвистическому и статистическому анализу результатов эксперимента.

Annotation: The article talks about the stages of creation of the "Children's Associative Dictionary", the type of experiment and the process of sorting the results of the experiment. Some comments on conducting an associative experiment on the speech of preschool children, linguistic and statistical analysis of the results of the experiment are given.

Kalit so‘zlar: assotsiatsiya, assotsiativ lug‘at, assotsiativ tajriba, lingvistik tahlil, statistik tahlil, stimuly, reaksiya, sinaluvchi.

Ключевые слова: ассоциация, ассоциативная лексика, ассоциативный эксперимент, лингвистический анализ, статистический анализ, стимул, реакция, экспериментатор.

Key words: association, associative vocabulary, associative experience, linguistic analysis, statistical analysis, stimulus, response, experimenter.

“Bolalar assotsiativ lug‘ati” “O‘zbek bolalarining leksik assotsiatsiyalari lug‘atini yaratish” mavzusidagi innovatsion loyiha doirasida yaratilgan. Dastavval, assotsiativ lug‘atlarni yaratish tajribasi jahon tilshunosligi misolida o‘rganilgan. Assotsiativ lug‘at tuzish prinsiplari, tajriba turlari, metodikasi ilmiy asosda tahlil etilgan. To‘plangan materiallar va ma‘lumotlardan ijodiy foydalangan holda loyihaning maqsad va vazifalari, bajariladigan ishlar belgilab olinib, assotsiativ tajriba o‘tkazish metodikasi ishlab chiqilgan.

Jahon tilshunosligida assotsiativ tajriba o‘tkazishning 3 ta asosiy metodi mavjud:

- 1) erkin assotsiativ tajriba;
- 2) bog‘li assotsiativ tajriba;



3) yo‘naltirilgan assotsiativ tajriba.

Bugungi kunda dunyo tilshunosligida assotsiativ lug‘atlar asosiy hollarda an‘ana bo‘lib qolgan erkin assotsiativ tajriba metodi natijalari asosida yaratib kelinmoqda.¹ Erkin assotsiativ tajribada sinaluvchiga stimuly so‘z bo‘yicha reaksiya bildirish uchun vaqt cheklovi qo‘yilmaydi. Sinaluvchidan stimuly so‘zni eshitganda yoki o‘qiganda xotirasida tiklangan faqat birinchi va bitta javob reaksiyasini taqdim etish talab qilinadi. Bog‘li assotsiativ tajribada esa sinaluvchiga stimuly so‘z bo‘yicha bitta emas, balki belgilangan vaqt davomida (1 yoki 3 daqiqada) istalgancha javob reaksiyasini taqdim etish imkoniyati beriladi. Ushbu tajriba turining erkin assotsiativ tajribadan asosiy farqi shundadir. Yo‘naltirilgan assotsiativ tajribada sinaluvchiga stimuly so‘z bo‘yicha ma‘lum grammatik shakl yoki xususiyatga ega bo‘lgan javob reaksiyalarini taqdim etish talabi qo‘yiladi. Masalan, tajriba o‘tkazuvchi tomonidan sinaluvchiga daraxt stimuly so‘zi berilib, ushbu stimuly so‘z bo‘yicha xotirada tiklangan sifat turkumi yoki boshqa so‘z turkumiga oid javob reaksiyalarini taqdim etish so‘raladi.

Assotsiativ tajribalar og‘zaki yoki yozma shaklda o‘tkazilishiga ko‘ra ham farqlanadi. Boisi, tajribadan olinadigan natijalar tajriba turi va metodiga, uni qanday tashkil etish, o‘tkazishga chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Shuni inobatga olgan holda dunyo tilshunosligida tajribalarni og‘zaki yoki yozma tarzda o‘tkazish bo‘yicha bir necha usullar ishlab chiqilgan.² Bular quyidagilar:

1.Yozma tajriba. Bu turdagi tajribada sinaluvchilarga stimuly so‘zlar yozma tarzda taqdim etiladi va ulardan javob reaksiyalarini yozma tarzda qayd etish so‘raladi. Yozma tajriba turini ommaviy tartibda tashkil etish mumkinligi, bir vaqtda bir necha sinaluvchi nutqi ustida assotsiativ tajriba o‘tkazish imkoniyati mavjudligi, vaqtni kam sarf qilishi bilan eksperimentator uchun qulay sanaladi.

2.Yozma-og‘zaki tajriba. Ushbu tajriba turida stimuly so‘zlar yozma tarzda beriladi, ammo javob reaksiyalari og‘zaki tarzda bayon etiladi. Ta’kidlangan tajriba turi bolalar leksikonini o‘rganish, bilingval shaxslar nutqini tadqiq etishda qo‘llanilishi bilan alohida ahamiyatga ega.

3.Og‘zaki-yozma tajriba. Assotsiativ tajriba turli xarakter va holatdagi insonlar bilan o‘tkaziladi. Jismonan o‘zi mustaqil ravishda yozish imkoniyatiga ega bo‘lmagan kishilar nutqi ustida o‘tkaziladigan assotsiativ tajribalarda og‘zaki-yozma tajriba turidan foydalaniladi. Bunda tajriba respondent bilan individual tarzda o‘tkaziladi. Informant tomonidan javob reaksiyalari og‘zaki tarzda taqdim etiladi, tajriba o‘tkazuvchi uni yozma tarzda qayd etib boradi.

¹ Lutfullayeva D., Davlatova R., Tojiboyev B. O‘zbek tili assotsiativ lug‘ati (milliy-madaniy birliklar). Toshkent: Navoiy universiteti, 2019. – B.25.

² Еленевская М.Н., Овчинникова И. Г. Хранение и описание вербальных ассоциаций: словари и тезаурусы. Вопросы психолингвистики, 2016, 29, 69-93. <http://iling-ran.ru/library/voprosy/29.pdf>



4.Og‘zaki tajriba ham sinaluvchilar nutqi ustida individual tarzda maxsus ovoz va tasvirni yozib olishga mo‘ljallangan texnik vositalar (diktofon, videokamera)ga muhrlangan holatda o‘tkaziladi. Tajriba davomida eksperimentatordan har bir respondent nutqiga individual yondashish talab etiladi. Shu jihatdan ham, mazkur tajriba turini o‘tkazish uchun ko‘p vaqt talab etiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda o‘qish va yozish ko‘nikmasi shakllanmaganligi bois, ular nutqi ustida o‘tkaziladigan assotsiativ tajribalarda og‘zaki tajriba turidan foydalaniladi. T.V.Sokolova tomonidan tuzilgan bolalar assotsiativ lug‘ati uchun o‘tkazilgan tajribalarda ham yuqorida qayd etilgan og‘zaki assotsiativ tajriba turidan foydalanilgan.³

5.Kompyuter assotsiativ eksperimenti. Axborot-texnologiyalari rivojlanayotgan hozirgi zamonda assotsiativ tajribani kompyuter variantda, onlayn test shaklida o‘tkazish sinaluvchi va tajriba o‘tkazuvchi uchun ancha qulaylik va imkoniyatlar yaratadi. Unda tajribani o‘tkazish, yozib olish, to‘plangan materiallarni qayta ishlash maxsus ishlab chiqilgan dasturiy ta‘minot orqali amalga oshiriladi. Kompyuter assotsiativ eksperimenti og‘zaki va yozma tajribadan farqli ravishda vaqtni sezilarli darajada tejalishiga xizmat qiladi va bunda so‘rovnomalar tartibli tarzda saqlanadi. Bu esa olib borilayotgan tadqiqotning samarali bo‘lishini ta‘minlaydi. Hozirgi kunda ushbu tajribani dunyo bo‘yicha standartlashtirilgan va mukammal holatda bo‘lgan E-Prime <http://www.pstnet.com/eprime.cfm> web-saytida amalga oshirish mumkin.

“Bolalar assotsiativ lug‘ati”ni yaratish uchun erkin assotsiativ tajriba metodining og‘zaki tajriba turi tanlab olindi. Tajriba uchun so‘rovnomalar tayyorlandi. So‘rovnomada sinaluvchining ism-sharifi, yoshi, jinsi, ta‘lim olayotgan MTT, tajriba o‘tkazilgan joy va vaqt kabi ma‘lumotlar qayd etildi.

Assotsiativ tajriba so‘rovnomasi

Sinaluvchining ism-familiyasi: _____ MTT: _____

Sinaluvchining yoshi: _____

Sinaluvchining jinsi: _____

Tajriba o‘tkazilgan joy va vaqt: _____

No	Stimul so‘z	Reaksiya
1		
2		
3		

³ Соколова Т.В. Ассоциативный словарь ребенка: Вербальные реакции детей 3-7 лет. Ч.1: От стимула к реакции. Архангельск: Изд-во ПМПУ, 1999. – 255 с.



4		
---	--	--

Assotsiativ tajribalarga maktabgacha yoshdagi (3 yoshdan 7 yoshgacha) 200 nafar sinaluvchi jalb etildi. Tajribalar Toshkent shahridagi 221-, 235-, 288-, 532- maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o’tkazildi.

Bolalar nutqi ko‘p qirrali bo‘lganligi bois, assotsiativ tajriba davomida tajriba o‘tkazuvchidan har bir bolaning xarakteri, tajriba vaqtidagi psixologik holatidan kelib chiqib, individual munosabatda bo‘lish, har bir bolaga ayricha yondashishni talab etdi. Sinaluvchilar o‘zbek millatiga mansub bo‘lishi va o‘zbek tilida so‘zlashishi inobatga olindi. Dastlab savol-javob usuli orqali bolaning yoshi, qiziqishlari, bir qator xarakter xususiyatlari aniqlandi. Shu tariqa bola va tajriba o‘tkazuvchi o‘rtasida o‘zaro iliq, do‘stona munosabat o‘rnatildi. Bu holat tajriba jarayonlarining tabiiy va samarali kechishi, ko‘zlangan maqsadga to‘laqonli erishishni ta’minlagan asosiy omildir. Bola bilan tanishuv bosqichidan so‘ng unga stimuly so‘z o‘qib eshittirildi va ushbu stimuly so‘zni eshitganda xotirasiga kelgan birinchi tushunchani aytish topshirig‘i berildi. Shu asosida sinaluvchilarga 100 ta stimuly so‘z taqdim etildi. Reaksiya bildirish uchun vaqt chegarasi qo‘yilmadi. Tajriba davomida sinaluvchilar tomonidan ayrim stimuly so‘zlarga nisbatan bir vaqtning o‘zida ketma-ket ikki yoki undan ortiq miqdorda reaksiya bildirish holatlari kuzatildi. Erkin assotsiativ tajriba metodiga ko‘ra, sinaluvchilardan ixtiyoriy vaqt davomida stimuly so‘z bo‘yicha xotirasida tiklangan faqat bitta va birinchi javob reaksiyasini taqdim etish talab qilinadi. Ammo yuqoridagi holatda birdan ortiq reaksiyalar bir vaqtning o‘zida uzilishsiz, ketma-ket ifodalanganligi bois, ikkinchi va uchinchi javoblar ham reaksiya sifatida qabul qilindi. Bu holat ko‘proq alla, bog‘cha, maqtanchoq, banan, maymun, qizg‘anchiq, olma kabi stimuly so‘zlarga berilgan javob reaksiyalarida o‘z ifodasini topgan.

Assotsiativ tajribadan so‘ng stimuly so‘zlar bo‘yicha olingan javob reaksiyalari kompyuterda elektron holatga keltirildi. Javob reaksiyalarining tabiiyligini saqlab qolish maqsadida so‘rovnomada aks etgan javob reaksiyalari sinaluvchilar bilan o‘tkazilgan tajriba jarayonining video va audio shaklida yozib olingan varianti bilan solishtirilib, sinchiklab ko‘zdan kechirilgan holda kiritildi. To‘plangan materiallar lingvistik tahrirdan o‘tkazilgandan so‘ng reaksiyalarning statistik tahlili amalga oshirildi.

Statistik tahlilda har bir stimuly so‘zga berilgan javob reaksiyalarining umumiy miqdori, qo‘llanilish chastotasi aniqlandi. Turli javob reaksiyalari, takror va yakka holatda qo‘llangan javob reaksiyalari hamda javob berilmagan holatlar haqidagi statistik ma’lumotlar tayyorlandi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqi ustida o‘tkazilgan assotsiativ tajriba jarayonida bolalar kattalardan farqli ravishda tezkorlik bilan stimuly so‘zga aloqador bo‘lgan javob reaksiyalarini bildirdi. Shuningdek, tajriba jarayonida nolisoniy omillar ta’sirida hosil bo‘lgan verbal assotsiatsiyalarga ham duch kelindi. Masalan, Dilmurodova Farzona (6



yosh)ga stimuly soʻz sifatida kuchuk soʻzi taqdim etilganda sinaluvchi atrofdagi predmetlar vositasida, yaʼni tajriba oʻtkazilayotgan xonada mavjud boʻlgan alifboga nazar tashlagan holda K deb javob berdi.⁴ Sinaluvchidan nega aynan shu javobni taqdim etganligi soʻralganda u kuchuk k harfidan boshlanadi deb javob qaytardi. Yoki: Tohirjonova Munisa (6 yosh)ga ninachi soʻzi taqdim etilganda N deb javob berdi. Buning sababi soʻralganda ninachi soʻzi N tovushidan boshlanadi deb javob qaytardi. Mazkur holat boshqa sinaluvchilar tomonidan banan, bozor, olma, sabzavot, shokolad kabi soʻzlarga berilgan javob reaksiyalarida ham yaqqol namoyon boʻldi. Ushbu jihat bolalar nutqi ustida oʻtkazilgan assotsiativ tajribalarning oʻziga xos xususiyati sanaladi. Lugʻat tuzish va assotsiativ tajriba oʻtkazish jarayonida quyidagi muammolarga duch kelindi:

1) assotsiativ tajribalar maktabgacha taʼlim tashkilotlarida oʻtkazilgani bois, kun tartibini inobatga olish lozimligi assotsiativ tajribaning uzoq muddat davomida olib borilishiga sabab boʻldi;

2) tajriba davomida ayrim bolalarning atrofdagi narsa-hodisalarga chalgʻishi yoki boshqa bolalarning sinaluvchiga halaqit berishga urinishi sinaluvchining stimuly soʻzga erkin reaksiya bildirgan olmasligiga sabab boʻlishi kuzatildi. Bunday holatlarda tajriba oʻtkazuvchi tomonidan jarayon toʻliq nazoratga olindi, imkon qadar sinaluvchiga boshqalar tomonidan halaqit berilmaydigan va tashqi taʼsir kuzatilmaydigan sharoitda suhbatlashishga erishildi;

3) ayrim sinaluvchilarning javob berishdan chekinishi tajriba oʻtkazuvchidan ularga individual tarzda yondashishni, tajriba uchun koʻproq vaqt ajratishni talab etdi. Yuqoridagi vaziyatda sinaluvchini jarayonga jalb etish maqsadida tajriba oʻtkazuvchi tomonidan turli soʻz oʻyinlari tashkil qilinib, bolaga qiziqarli maʼlumotlar va savollar berildi. Bu muammolar oʻz vaqtida bartaraf etilgani hamda kerakli yechim topilgani bois, lugʻatning sifatiga salbiy taʼsir koʻrsatmadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Lutfullayeva D., Davlatova R., Tojiboyev B. Oʻzbek tili assotsiativ lugʻati (milliy-madaniy birliklar). Toshkent: Navoiy universiteti, 2019. – 335 B.
2. Mirnosirova D. Bolalar assotsiativ lugʻati. Toshkent: Bookmany print, 2022. – 164 B.
3. Еленевская М.Н., Овчинникова И. Г. Хранение и описание вербальных ассоциаций: словари и тезаурусы. Вопросы психолингвистики, 2016, 29, 69-93. <http://iling-ran.ru/library/voprosy/29.pdf>
4. Соколова Т.В. Ассоциативный словарь ребенка: Вербальные реакции детей 3-7 лет. Ч.1: От стимула к реакции. Архангельск: Изд-во ПМПУ, 1999. – 255 С.

⁴ Mirnosirova D. Bolalar assotsiativ lugʻati. Toshkent: Bookmany print, 2022. – B.74.

